

7-SINF MUSIQA FANIDAN I CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Surxondaryo–Qashqadaryo musiqa uslubining shakllanishiga ta'sir qilgan tarixiy va maishiy omillarni tahlil qiling.
2. Mehnat aytimlari va mavsumiy marosim qo'shiqlari o'rtasidagi farqni misollar asosida tushuntiring.
3. Baxshi ijrochiligining doston saqlanishidagi o'rnini nimada? Izohlang.
4. Do'mbira va qo'bizning doston ijrosidagi vazifalarini solishtiring.
5. Dostonning nasriy va she'riy qismlari qanday uyg'unlashadi?
6. Surxondaryo–Qashqadaryo uslubida ijro etiladigan cholg'ularni sanab, ularning badiiy imkoniyatlarini yozing.
7. Buxoro–Samarqand musiqa uslubining ikki tillilik bilan bog'liq xususiyatini tushuntiring.
8. Maqom, xalq qo'shig'i va mavsumiy marosim aytilari Buxoro–Samarqand uslubida qanday birlashadi?
9. 'Baljuvon' xalq kuyining uslubiy xususiyatlari haqida fikr bildiring.
10. 'Tinchlik bo'lsin' qo'shig'ida qanday g'oya ilgari surilganini izohlang.
11. Sozanda dastasi deganda nimani tushunasiz? Uning tarkibini yozing.
12. Doirachi sozandaning jamoaviy ijrodagi vazifasi nimadan iborat?
13. Interval tushunchasini oddiy nota misoli orqali tushuntiring.
14. Farg'ona–Toshkent musiqa uslubining boshqa hudud uslublaridan farqini tahlil qiling.
15. Xalq ashulasi va katta ashula o'rtasidagi asosiy tafovutlarni yozing.
16. 'Tanavor' ashulasi nima uchun mashhur ekanini izohlang.
17. 'Ey nozanin' ashulasida mumtoz she'riyat va kuy qanday uyg'unlashgan?
18. Katta ashulaning ijro usuli nima uchun murakkab hisoblanadi?
19. Patnisaki ashula deganda nimani tushunasiz?
20. Yallachilik san'atining xalq hayotidagi o'rnini tushuntiring.
21. Xorazm musiqa uslubining ijro xarakteri va ohang tuzilishini tavsiflang.
22. 'Lazgi' kuyining ritmik va raqsga mos xususiyatlarini izohlang.
23. Xorazm dostonchilik an'analari Surxondaryo–Qashqadaryo dostonchiligidan nimasi bilan farq qiladi?
24. 'Ovozing sening' aytimida ona va farzand tuyg'usi qanday aks etgan?
25. 'Ona tilim – o'zbek tilim' qo'shig'ining tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.

7-SINF MUSIQA FANIDAN I CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Surxondaryo–Qashqadaryo musiqa uslubida mehnat va marosim aytimlarining xalq turmushidagi o‘rmini tushuntiring.
2. Baxshi ijrosida ovoz, cholg‘u va matnning birligi qanday ta‘minlanadi?
3. ‘Go‘ro‘g‘li’ va ‘Alpomish’ dostonlarining musiqiy ijroga ta‘siri haqida yozing.
4. Mahalliy uslublarda do‘mbiraning yetakchi cholg‘u bo‘lish sababi nimada?
5. Buxoro–Samarqand musiqa madaniyatida tojik va o‘zbek tillarining uyg‘unligi qanday namoyon bo‘ladi?
6. ‘Baljuvon’ kuyini xalq kuyiga xos belgilari orqali tavsiflang.
7. ‘Tinchlik bo‘lsin’ qo‘shig‘ining mazmuni bolalar dunyoqarashiga qanday ta‘sir qiladi?
8. Sozanda ansamblida yakkanavoz va jo‘rnovoz vazifalarini taqqoslang.
9. Doiraning ritm hosil qilishdagi o‘rni nimada?
10. Interval turlarini ajratish nima uchun musiqa savodida muhim?
11. Farg‘ona–Toshkent uslubida ashulachilikning yetakchi bo‘lishi sabablarini izohlang.
12. ‘Tanavor’ ashulasining xalq orasida ommalashish omillarini tahlil qiling.
13. ‘Ey nozanin’ ashulasining kuy va matn uyg‘unligini tushuntiring.
14. Katta ashula qanday ijro muhiti va qanday ovoz imkoniyatini talab qiladi?
15. Yalla va katta ashulaning ijro shaklini solishtiring.
16. Patnisaki ashulalar nima sababdan alohida nom bilan yuritiladi?
17. Xorazm musiqa uslubining boshqa voqa uslublaridan ajralib turadigan tomonlarini yozing.
18. ‘Lazgi’ning faqat raqs emas, balki musiqiy meros sifatidagi ahamiyatini izohlang.
19. Xorazm dostonchiligi repertuarining o‘ziga xosligini tushuntiring.
20. ‘Ovozing sening’ aytimida qanday lirik kechinma berilgan?
21. ‘Ona tilim – o‘zbek tilim’ qo‘shig‘i milliy g‘ururni qanday kuchaytiradi?
22. Hududiy musiqa uslublarini o‘rganish milliy madaniyatni anglashga qanday yordam beradi?
23. Mahalliy uslublarda aytim va cholg‘u ijrosi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiling.
24. Xalq ashulalari nima uchun og‘zaki an‘ana orqali uzoq yashab kelgan?
25. 1-chorak mavzulari ichida qaysi yo‘nalish sizga murakkabroq tuyuladi va nima uchun?

7-SINF MUSIQA FANIDAN II CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Maqom san'atining tarixiy shakllanishi haqida yozing.
2. Shashmaqom nima va u nima uchun kasbiy musiqa san'ati namunasi hisoblanadi?
3. Shashmaqom tarkibiga kiruvchi olti maqomni sanang va ulardan ikkitasi ma'nosini izohlang.
4. Maqomning cholg'u va ashula bo'limlari o'rtasidagi farqni tushuntiring.
5. 'Mushkilot' bo'limi nima sababdan shu nom bilan yuritiladi?
6. 'Nasr' bo'limining umumiy tuzilishini izohlang.
7. 'Tasnif', 'Tarje', 'Gardun', 'Muxammas' va 'Saqil' atamalariga ta'rif bering.
8. 'Tasnifi Buzruk' asarining shakliy xususiyatlari haqida yozing.
9. 'Nasrulloi' aytim yo'li maqomning qaysi jihatini namoyon etadi?
10. Ufar usullarining yengil va og'ir ko'rinishlarini taqqoslang.
11. Shashmaqom ijrochiligi uchun qanday bilim va malaka zarur?
12. Ota Jalol Nosirovning maqom san'atidagi xizmatlarini tahlil qiling.
13. Atoqli maqom ijrochilarining merosni saqlashdagi o'rni nimada?
14. Xorazm maqomlari bilan Shashmaqom o'rtasidagi umumiylik va farqlarni yozing.
15. Xorazm maqomlarining aytim yo'lga xos jihatlarni tushuntiring.
16. Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarining o'ziga xos tomonlarini izohlang.
17. 'Dugoh Husayniy' va 'Nasrulloi' namunalarida qanday uslubiy farqlar mavjud?
18. Komiljon Otaniyozov ijodining maqom va xalq qo'shiqchiligi rivojidadagi o'rini yozing.
19. Mulla To'ychi Toshmuhamedov nima uchun muhim san'atkorlardan sanaladi?
20. Maqomda ustoz-shogird an'anasining ahamiyatini tushuntiring.
21. Maqom ijrosida doira usullarining vazifasi nimada?
22. Maqom musiqasi nima uchun murakkab, ammo mukammal tizim deb baholanadi?
23. 2-chorak mavzularidan kelib chiqib, maqomning tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.
24. Maqom va oddiy xalq qo'shig'ini tuzilish jihatidan taqqoslang.
25. Maqom san'ati yosh avlodni estetik tarbiyalashda qanday o'rin tutadi?

7-SINF MUSIQA FANIDAN II CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Maqom tushunchasining lug'aviy va musiqiy ma'nolarini izohlang.
2. Shashmaqomning kasbiy musiqa sifatida shakllanish omillarini tahlil qiling.
3. Olti maqomning nomlari qanday ketma-ketlikda joylashganini yozing.
4. Shashmaqomning ikki yirik bo'limga bo'linishi nima bilan izohlanadi?
5. 'Mushkilot' bo'limining asosiy qismlarini sanab, ularga ta'rif bering.
6. 'Nasr' bo'limida ashula yo'llari qanday guruhlarga ajraladi?
7. 'Tasnifi Buzruk' va 'Savti Kalon Soqiynomasi' namunalari uslub jihatdan taqqoslang.
8. Maqomning shakl va usul jihatidan mukammalligi nimada ko'rinadi?
9. Ufarning 6/8 va 3/4 ritmga bog'liqligini tushuntiring.
10. Maqom asarlarida aruz vaznidagi she'riyat nima uchun muhim?
11. Ota Jalol Nosirovning maqom maktabidagi ustozlik faoliyati haqida yozing.
12. Atoqli maqom ijrochilarining an'anani davom ettirishdagi xizmatlarini tahlil qiling.
13. Xorazm maqomlarining Shashmaqomdan farq qiluvchi tomonlarini yozing.
14. Xorazm maqomlarining aytim va cholg'u yo'llari haqida qisqacha tushuncha bering.
15. Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarining xalq orasida ommalashish sabablarini izohlang.
16. Komiljon Otaniyozov ijrosining o'ziga xosligi nimada?
17. Mulla To'ychi Toshmuhamedovning ashulachilik maktabidagi o'rni qanday?
18. Maqomni tinglash va o'rganish o'quvchining didiga qanday ta'sir qiladi?
19. Maqomda cholg'u va ovozning mutanosibligi qanday saqlanadi?
20. Maqomlarni nota yozuviga tushirish nega tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan?
21. Maqom va hududiy uslublar o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.
22. Maqom ijrochiligida nafas, talaffuz va usulning ahamiyatini tushuntiring.
23. 2-chorak mavzulariga tayangan holda, maqom san'atining kelajakdagi ahamiyatini baholang.
24. Shashmaqomni bilish o'zbek musiqa tarixini tushunishga qanday yordam beradi?
25. Maqom bo'yicha o'tilgan mavzulardan biri yuzasidan o'z xulosangizni yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN III CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Jahon musiqa madaniyati deganda nimani tushunasiz? Izohlang.
2. Polifoniya tushunchasiga ta'rif bering va uning amaliy ahamiyatini yozing.
3. Sharq allomalari orasida musiqa haqida fikr bildirgan olimlarni sanang.
4. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinoning musiqa nazariyasiga qo'shgan hissasini izohlang.
5. Alisher Navoiy ijodida musiqa va she'riyatning bog'liqligi nimada?
6. Jahon musiqasi rivojining asosiy bosqichlarini ketma-ketlikda tushuntiring.
7. A. Vivaldining 'Yil fasllari' turkumi nega mashhur ekanini yozing.
8. Musiqiy asarni tahlil qilishda kayfiyat, temp va obrazlarning roli nimada?
9. Vena klassik maktabi namoyondalarini sanang.
10. Gaydn, Motsart va Betxoven ijodidagi umumiy va farqli jihatlarni tahlil qiling.
11. F. Shubertning 'Serenada'si qanday tuyg'u uyg'otishini izohlang.
12. Impressionizm musiqada qanday yangilik olib kirgan?
13. Yunus Rajabiy ijodining o'zbek musiqa madaniyatidagi ahamiyatini yozing.
14. 'Tohir va Zuhra' musiqali dramasi orqali qanday milliy ruh ifodalanadi?
15. Xoji Abdulaziz Rasulovning ijrochilik san'atidagi o'rni nimada?
16. O'zbek musiqasida kompozitorlik ijodi qanday bosqichda rivojlandi?
17. V. A. Uspenskiyning o'zbek musiqasini o'rganishdagi xizmatlarini tushuntiring.
18. M. Tojiyev ijodida simfoniya janrining yuksalishi haqida yozing.
19. Yevropa simfoniyasi bilan o'zbek simfoniyasini taqqoslang.
20. Matniyoz Yusupov ijodining milliy musiqa bilan bog'liqligi nimada?
21. 3-chorak mavzulari bo'yicha jahon va milliy musiqa o'rtasidagi aloqani tahlil qiling.
22. Musiqa tarixini bilish ijrochilik va tinglash madaniyatiga qanday ta'sir qiladi?
23. Klassik musiqa yoshlar didini shakllantirishda qanday o'rin tutadi?
24. Jahon musiqasi namunalarini o'rganish milliy musiqani chuqurroq anglashga qanday yordam beradi?
25. 3-chorakda o'rganilgan kompozitorlardan biri haqida kengroq fikr bildiring.

7-SINF MUSIQA FANIDAN III CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Jahon musiqa madaniyati va milliy musiqa o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushuntiring.
2. Polifonik asar bilan monodik asar o'rtasidagi farqni izohlang.
3. Sharq allomalarining musiqa haqidagi qarashlari bugungi kunda nima uchun muhim?
4. Forobiy va Ibn Sino musiqa ilmini qanday ilmiy asoslaganini yozing.
5. Navoiy ijodida musiqa, estetik did va so'z san'ati qanday uyg'unlashadi?
6. Vivaldi asarlarida tabiat manzaralari qanday musiqiy vositalar bilan tasvirlanadi?
7. Jahon musiqasi rivojida klassitsizm davrining belgilarini yozing.
8. Vena klassik maktabi nima uchun jahon musiqasida alohida o'rin tutadi?
9. Motsart va Betxoven ijodini hissiy ta'sir kuchi jihatidan solishtiring.
10. Shubertning 'Serenada'si lirik asar sifatida qanday xususiyatlarga ega?
11. Impressionizm musiqasida tovush va rang tasavvuri qanday bog'langan?
12. Yunus Rajabiy ijodi orqali maqom va zamonaviy sahna o'rtasidagi aloqani tushuntiring.
13. 'Tohir va Zuhra' asari milliy sahna musiqasi uchun nima bergan?
14. Xoji Abdulaziz Rasulov ijrosining tarixiy qimmatini izohlang.
15. Kompozitorlik ijodi bilan bastakorlik an'anasi o'rtasidagi farqni yozing.
16. V. A. Uspenskiyning nota yozuvi va ilmiy izlanishdagi xizmatlarini tushuntiring.
17. M. Tojiyev simfonik ijodining o'zbek musiqasidagi yangiligini tahlil qiling.
18. Milliy simfoniya yaratishda xalq ohanglaridan foydalanish nima uchun muhim?
19. Matniyoz Yusupov ijodida qaysi milliy belgilar ko'proq seziladi?
20. 3-chorak mavzularidan kelib chiqib, jahon musiqasini o'rganishning foydasini yozing.
21. Klassik musiqa tinglovchi tafakkurini qanday boyitadi?
22. Musiqiy asarni tahlil qilishda tarixiy davrni bilish nima uchun zarur?
23. Milliy va jahon musiqasini birgalikda o'rganish estetik tarbiyaga qanday xizmat qiladi?
24. Sizga ko'proq ta'sir qilgan kompozitorni tanlab, uning ahamiyatini tushuntiring.
25. 3-chorak mazmunidan kelib chiqib, musiqa madaniyati taraqqiyotiga xulosa yozing.

7-SINF MUSIQA FANIDAN IV CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. O'zbek zamonaviy musiqa madaniyatining asosiy yo'nalishlarini izohlang.
2. Zamonaviy simfonik musiqa bilan an'anaviy milliy musiqaning bog'liqligini tushuntiring.
3. Qashqarcha usuli deganda nimani tushunasiz?
4. Atoqli o'zbek san'atkorlari milliy madaniyat rivojiga qanday hissa qo'shgan?
5. 'Dutorchi qizlar' ansamblining o'zbek san'atidagi o'rnini yozing.
6. Musiqiy jamoalarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
7. Teatr san'ati va konsert ijrochiligi o'rtasidagi farqni tahlil qiling.
8. Sahna madaniyati deganda nimani tushunasiz?
9. Teatr musiqasi obraz yaratishda qanday xizmat qiladi?
10. Televideniya va kino musiqasining vazifasi nimadan iborat?
11. Film musiqasi syujet va kayfiyatni qanday kuchaytiradi?
12. 'Tangalik bolalar' filmi misolida bolalar musiqasining ahamiyatini tushuntiring.
13. 'Vatanginam' qo'shig'ining g'oyaviy yo'nalishini tahlil qiling.
14. O'zbek musiqa san'atining jahon sahnasiga chiqishida qaysi omillar muhim bo'lgan?
15. Sug'diyona kamer orkestrining o'rnini va ahamiyatini yozing.
16. Milliy musiqa jamoalarining xalqaro maydondagi nufuzi nimaga bog'liq?
17. Zamonaviy musiqada milliy ruhni saqlash nima uchun muhim?
18. An'anaviy va zamonaviy ijrochilikni birlashtirish qanday natija beradi?
19. Musiqa, teatr va kino o'rtasidagi badiiy aloqani izohlang.
20. Konsert ijrochiligida tinglovchi bilan muloqotning o'rnini qanday?
21. 4-chorak mavzularidan kelib chiqib, san'atkor shaxsining mas'uliyatini tahlil qiling.
22. O'zbek san'atkorlarining muvaffaqiyati yosh avlodga qanday ta'sir qiladi?
23. Milliy musiqa jahon sahnasiga chiqqanda qaysi belgilar yo'qolmasligi kerak?
24. Televizion va kino musiqasini oddiy qo'shiqdan ajratib turuvchi belgilarni yozing.
25. 4-chorak mavzulari bo'yicha o'z xulosangizni bayon qiling.

7-SINF MUSIQA FANIDAN IV CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. O‘zbek zamonaviy musiqa madaniyatida milliylik va yangilik qanday uyg‘unlashgan?
2. Zamonaviy musiqada simfonik yo‘nalishning ahamiyatini tushuntiring.
3. Qashqarcha usulining ritmik xususiyatlari nimada?
4. Atoqli o‘zbek san’atkorlari faoliyati nima uchun ibrat maktabi hisoblanadi?
5. ‘Dutorchi qizlar’ ansamblining sahna uslubi va ijrochilik madaniyatini izohlang.
6. Musiqiy jamoalarda hamjihatlik va intizom nima uchun muhim?
7. Teatr san’ati tomoshabin tarbiyasiga qanday ta’sir qiladi?
8. Konsert ijrochiligida jonli ijroning ustun tomonlarini yozing.
9. Teatr musiqasi va kino musiqasi orasidagi farqni tahlil qiling.
10. Kino musiqasi qahramon xarakterini ochishda qanday rol o‘ynaydi?
11. ‘Tangalik bolalar’ filmidagi musiqa bolalar dunyosini qanday aks ettiradi?
12. ‘Vatanginam’ qo‘shig‘ida vatanparvarlik g‘oyasi qanday berilgan?
13. O‘zbek musiqa san’atining jahon sahnasiga chiqishida repertuarining roli nimada?
14. Sug‘diyona kamer orkestri kabi jamoalar madaniyat targ‘ibotida qanday o‘rin tutadi?
15. Zamonaviy texnologiyalar musiqa tarqalishiga qanday yordam bermoqda?
16. Milliy kuy va qo‘shiqlarni zamonaviy ishlashning ijobiy va salbiy tomonlarini yozing.
17. Sahna madaniyati buzilsa ijroning ta’siri qanday o‘zgaradi?
18. San’atkorning ovozi, ko‘rinishi va muomalasi nega birdek muhim?
19. Televizion musiqiy ko‘rsatuvlarning yoshlar didiga ta’siri haqida yozing.
20. Musiqa va kino birlashganda obrazlilik qanday kuchayadi?
21. 4-chorak mavzularidan kelib chiqib, san’atning ommaviy tarbiyadagi o‘rnini baholang.
22. O‘zbek san’atkorlarining xalqaro muvaffaqiyati mamlakat obro‘sig a qanday xizmat qiladi?
23. Milliy musiqa jamoalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash nima uchun zarur?
24. An’anaviy san’atni zamonaviy sahnaga olib chiqishda nimalarga e’tibor berish kerak?
25. 4-chorak bo‘yicha siz uchun eng muhim mavzuni tanlab, sababini yozing.